

MULKKA QARSHI JINOYATLAR VA ULARNI KVALIFIKATSIYA QILISHDAGI AHAMIYATLI JIHATLAR

Muxammadova Marjona Zavqiy qizi

O‘zbekiston Milliy universiteti

Yurisprudensiya: Biznes huquqi

2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mulkka qarshi jinoyatlar tushunchasi, ularning turlari va jinoyatlarni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilishning sud-huquqiy ahamiyati tahlil qilinadi. Mulkka qarshi jinoyatlar jamiyatda mulk huquqlarini buzuvchi, iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan jinoyatlar sifatida ko‘riladi. Maqolada jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularning sud amaliyotiga ta‘siri, shuningdek, jinoyatlarni to‘g‘ri aniqlash va baholashning muhimligi haqida fikrlar keltiriladi. Shuningdek, kvalifikatsiya xatolarining oqibatlarini va ularni oldini olish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari huquqni muhofaza qilish organlari va sud organlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: mulkka qarshi jinoyatlar, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish, sud amaliyoti, jinoyat-huquqiy tahlil, jinoyat javobgarligi, huquqni muhofaza qilish, jinoyatni aniqlash, dalillar, jinoyatchilikka qarshi kurash.

Annotation: This article analyzes the concept of crimes against property, their types, and the legal-judicial significance of proper qualification of such crimes. Crimes against property are regarded as offenses that violate property rights and negatively affect economic stability in society. The article presents views on the problems arising in the process of qualifying crimes and their impact on judicial practice, as well as the importance of correctly identifying and assessing crimes. Moreover, the consequences of qualification errors and ways to prevent them are discussed. The results of the study include recommendations aimed at improving the activities of law enforcement and judicial bodies.

Keywords: crimes against property, criminal qualification, judicial practice, criminal-legal analysis, criminal liability, law enforcement, crime detection, evidence, combating crime.

Kirish. Mulkka qarshi jinoyatlar – jamiyatda mulkchilik huquqlarini buzuvchi, iqtisodiy barqarorlik va xavfsizlikka tahdid soluvchi huquqbuzarliklar hisoblanadi. Ushbu jinoyatlar turli shakllarda sodir etiladi, jumladan o‘g‘irlik, firibgarlik, talonchilik, rastrata va boshqa mulkka oid huquqbuzarliklar. Jinoyatlarning samarali tergov qilinishi, sudlarda to‘g‘ri

baholanishi va huquqiy jihatdan aniq kvalifikatsiya qilinishi jamiyat tinchligi va huquqiy tartibning mustahkamlanishi uchun muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasida:

Fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste’molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi.

O‘zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi ta’minlanadi.

Xususiy mulk daxlsizdir. Mulkdor o‘z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emas, deb belgilab qo‘yilgan.⁹⁶

Mazkur konstitutsiyaviy normalar O‘zbekiston Respublikasida mulkning barcha shakllarini — xususan, xususiy mulkni — qonuniy asosda himoya qilish zarurligini belgilaydi. Bu esa, o‘z navbatida, mulkka tajovuz qiluvchi har qanday harakatni jinoyat sifatida baholashga huquqiy zamin yaratadi. Amalda, mulk daxlsizligiga tahdid soluvchi har qanday noqonuniy harakat, fuqarolarning huquq va manfaatlariga, tadbirkorlarning iqtisodiy xavfsizligiga, jamiyatda barqarorlik va ishonch muhitiga zarar yetkazadi. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining X bobida mulkka qarshi jinoyatlar alohida tartibda ko‘rib chiqiladi. Bu bobda o‘g‘rilik, talonchilik, bosqinchilik, firibgarlik, o‘zlashtirish, mulkka qasddan zarar yetkazish kabi harakatlar jinoyat deb e’tirof etilib, ularning har biri uchun jazo choralari belgilangan. Davlat tomonidan xususiy mulk daxlsizligi konstitutsiyaviy darajada kafolatlangani bilan bir qatorda, Jinoyat kodeksidagi ushbu normalar bu kafolatlarni amaliy jihatdan ta’minlaydi. Ya’ni, fuqaro yoki davlatning mulkiga ruxsatsiz egalik qilgan, undan noqonuniy foydalangan, mol-mulkni talon-taroj qilgan shaxslar qonun oldida javobgarlikka tortiladi. Ayniqsa, bu jinoyatlar zo‘rlilik ishlatish, takroran yoki uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan hollarda yanada og‘irroq jazo choralari nazarda tutadi.

Ushbu jinoyatlarni tahlil qilishdan avval mulk tushunchasiga to‘xtalib o‘tish jinoyatlarning yaxshiroq tushunish uchun muhim ahamiyatga ega.

Mulk – bu mulkning egasi bilan jamiyatning boshqa a’zolari (mulkdor bo‘lmaganlar) o‘rtasida mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish bo‘yicha yuzaga keladigan huquqiy munosabatlardir.

⁹⁶ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 65-modda

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 167-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasida mulkning xususiy va ommaviy shakllari mavjud.⁹⁷

Mulk huquqi shaxsning o‘ziga qarashli mol-mulkka o‘z xohishi bilan va o‘z manfaatlarini ko‘zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek o‘zining mulk huquqini, kim tomonidan bo‘lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidan iboratdir. Mulk huquqi muddatsizdir.

O‘zbekiston Respublikasida mulk xususiy mulk va ommaviy mulk shakllarida bo‘ladi.⁹⁸

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining X bobi doirasida nazarda tutilgan mulkka qarshi jinoyatlar — bu shaxslar yoki yuridik subyektlarning mol-mulkiga, mulkiy manfaatlariga bevosita tajovuz qiluvchi ijtimoiy xavfli va huquqqa zid harakatlar yig‘indisidir. Bu toifadagi jinoyatlar, odatda, mulkdan qonunga xilof ravishda foydalanish, uni noqonuniy ravishda egallash yoki undan mulkdorga zarar yetkazgan holda foyda ko‘rish bilan ifodalanadi.

Mulkka qarshi jinoyatlarning asosiy shakllariga bosqinchilik, tovlamachilik, talonchilik, o‘zlashtirish, firibgarlik va o‘g‘rilik kabi huquqbuzarliklar kiradi. Ular usul, shakl va sodir etilish mexanizmlariga ko‘ra turlicha bo‘lsa-da, barchasini birlashtiruvchi asosiy jihat — begona mol-mulkka egalik qilishga bo‘lgan noqonuniy intilishdir. Ushbu jinoyatlarda mulk egasining roziligisiz, ko‘pincha aldov, tahdid, zo‘rluk yoki yashirin harakatlar orqali mulkni qo‘lga kiritish, unga ziyon yetkazish yoki undan noqonuniy foydalanish holatlari kuzatiladi. Bunday jinoyatlarning huquqiy va ijtimoiy xavfi shundaki, ular nafaqat jabrlanuvchining moddiy holatiga putur yetkazadi, balki jamiyatda huquqiy ishonch, mol-mulk daxlsizligi va adolat tamoyillarining buzilishiga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, bu turdagi jinoyatlar tizimli tus olganda yoki takroran sodir etilganda, ular jinoyatchilikning xavfli shakllaridan biri sifatida baholanadi. O‘z o‘rnida ushbu jinoyatlar bir-biridan tubdan farq qiladi va shu jihatidan kelib chiqqan holda ularni kvalifikatsiya qilishda o‘ziga xos jihatlariga e‘tiborli bo‘lish talab etiladi. Ular aynan sodir etilish usuliga ko‘ra farqlanadi.

Jabrlanuvchining yoki boshqalarning yo‘qligida yoki ular bor bo‘lsada, ularga bildirmasdan o‘zganing mol-mulkini yashirin talon-toroj qilish o‘g‘rilik hisoblanadi. Bordiyu jabrlanuvchi yoki boshqalar mol-mulkining olinayotganligini ko‘rgan bo‘lsada, lekin aybdor bildirmasdan harakat qilyapman deb o‘ylagan bo‘lsa, bunday qilmishni ham o‘g‘rilik deb tavsiflash lozim.

O‘zganing mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilish bilan boshlangan, lekin jabrlanuvchi yoki boshqa shaxslar tomonidan sezib qolinganiga qaramasdan aybdor

⁹⁷ Rustamboyev M.X. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism/M. Rustamboyev. – Toshkent: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2024. - 410-bet

⁹⁸ O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 164-167-moddalar

tomonidan mulkka egalik qilish maqsadida ularning hayoti va sog‘lig‘i uchun xavfli bo‘lmagan zo‘rlik ishlatib yoxud shunday zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitib qilingan harakatlar talonchilik deb, hujum qilib hayoti yoki sog‘lig‘i uchun xavfli bo‘lgan zo‘rlik ishlatganda yoxud shunday zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitganda esa bosqinchilik deb tavsiflanadi.

Zo‘rlik ishlatish harakatlari aybdor tomonidan o‘zganing mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilishi tugagandan keyin qo‘lga tushishdan qutilish maqsadida sodir etilgan bo‘lsa, bunday harakat talonchilik yoki bosqinchilik deb qaralmaydi. Zo‘rlik ishlatishning xususiyati va kelib chiqqan oqibatlariga qarab qilmishni o‘g‘rilik deb, boshqa jinoyatlarning belgilari bo‘lganda jinoyatlar majmui bo‘yicha tavsiflash lozim.

Aybdor tomonidan sodir etilayotgan voqeani tushunib yetish qobiliyatiga ega bo‘lmagan (masalan, yoshi juda kichiklar, ruhiy jihatdan aqli norasolar, alkogoldan yoki narkotik moddalardan kuchli mastlik darajasida bo‘lgan yoki uxlab qolgan) shaxslarning mulkini o‘g‘rilash o‘zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilish deb tavsiflanishi kerak.

Aybdor, jabrlanuvchi va boshqalarning ko‘z oldida o‘zganing mulkini egallab olayotganligini va ular uning harakatlarining jinoiy xususiyatini tushunganligini anglaganda, o‘zganing mulkini oshkora talon-toroj qilish talonchilik hisoblanadi.

Tovlamachilikni bosqinchilik va talonchilikdan farqlashda tovlamachilikda zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish mulkni zo‘rlik ishlatayotgan vaqtda emas, balki kelajakda ko‘lga kiritishga qaratilishiga e‘tibor berish lozim. Agar qo‘rqitish amalda ishlatilsa, qilmish JKning tovlamachilik haqidagi moddasi bilan va asoslar bo‘lganda qo‘rqitish amalga oshirilayotganda sodir etilgan harakat uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddasi bilan ham tavsiflanishi lozim.

O‘zgalar mulkini talonchilik va o‘g‘rilik bilan egallagan va aybdor bu mulkdan o‘z xohishicha foydalanish yoki uni tasarruf etish imkoniyatiga ega bo‘lgan vaqtdan boshlab, bosqinchilik esa jabrlanuvchining hayot va sog‘lig‘i uchun xavfli bo‘lgan zo‘rlik ishlatish yoki shunday zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitib hujum boshlangan vaqtdan boshlab, tugallangan hisoblanadi.

Hayot uchun xavfli bo‘lgan zo‘rlik ishlatish deganda uning ishlatilishi jabrlanuvchining hayoti uchun aniq bo‘lgan xavfni vujudga keltiruvchi holat (masalan, jabrlanuvchini bo‘g‘ish, boshini suv ostida ushlab turish va h.k.) tushuniladi.

Sog‘liq uchun xavfli bo‘lgan zo‘rlik ishlatish deganda, jabrlanuvchiga sog‘lig‘ining buzilishiga sabab bo‘lgan tan jarohati yetkazish yoki shunday tan jarohatini yetkazish xavfini tug‘diruvchi harakatlar (chakkaga, quyosh o‘rilmasiga urish va h.k.) tushuniladi.⁹⁹

⁹⁹ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining “O‘zgalar mulkini o‘g‘rilik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-taroj qilish jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida” gi qarori

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 164-modda 2-qismi “a” bandida nazarda tutilgan bosqinchilik yo‘li bilan mulkka egalik qilishning belgilaridan biri qurol yoki qurol sifatida ishlatiladigan boshqa narsalarni qo‘llash hisoblanadi. Sudlar qurol yoki qurol sifatida foydalanish mumkin bo‘lgan ashyolarni jinoyat quroli deb topishda O‘zbekiston Respublikasining “Qurol to‘g‘risida”gi Qonuniga amal qilishlari lozim ekanligi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining qarorida belgilab qo‘yilgan. Shu o‘rinda qurol va qurol sifatida foydalanishi mumkin bo‘lgan boshqa ashyolar tushunchasiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasining “Qurol to‘g‘risida”gi Qonunida ushbu atamalarga kengroq ta’rif berib o‘tilgan.

Sovuq qurol sifatida foydalanilishi mumkin bo‘lgan ashyolar — kasbiy, ishlab chiqarish yoki sport faoliyatida yoxud xo‘jalik-maishiy maqsadlarda foydalanish uchun mo‘ljallangan, sanoat usulida yoki qo‘lbola tarzda yasalgan tig‘li, kesuvchi ashyolar (pichoqlar, bigizlar va boshqa uchi o‘tkirlangan sanchiladigan, kesuvchi ashyolar), jismoniy kuch ishlatganda shikast yetkazishi mumkin bo‘lgan ashyolar (beysbol bitalari, softbol o‘yini uchun bitalar);

qurol — tuzilishiga ko‘ra jonli nishonni yoki boshqa nishonni urish, signallar berish uchun mo‘ljallangan qurilmalar va ashyolar. Tuzilishi jihatidan qurolga o‘xshash bo‘lgan xo‘jalik-maishiy va ishlab chiqarish maqsadidagi buyumlar sifatida sertifikatlangan buyumlar, shuningdek tuzilishi jihatidan qurolga o‘xshash bo‘lgan sport aslahalari qurol jumlasiga kirmaydi.¹⁰⁰

Yuqorida muhokama qilingan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish maslasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, ularni to‘g‘ri va haqqoniy usulda kvalifikatsiya qilish har bir jinoyat huquqi sohasi uchun muhim va ahamiyatli jihatlaridan biri hisoblanadi. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish – bu jinoyatni uning xususiyatlari, belgilari va moddalariga asosan aniqlash hamda tegishli qonuniy moddalarga muvofiq sudda baholash jarayonidir. To‘g‘ri kvalifikatsiya jinoyatchilikka qarshi kurashda muhim o‘rin tutadi, chunki noto‘g‘ri baholash sud qarorlarining noto‘g‘ri chiqarilishiga, jabrlanuvchilarning huquqlari buzilishiga va jinoyatchilik darajasining oshishiga olib keladi. Kvalifikatsiya jinoyatni qonunchilikda ko‘rsatilgan mezonlar asosida aniqlash va tegishli moddaga muvofiq sud qarorida aks ettirishdir. Jinoyatlarni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish jinoyatchining aybini aniq belgilashga, uning qilmishiga muvofiq adolatli jazo tayinlashga imkon beradi. Shu sababli, kvalifikatsiya jinoyat-huquqiy himoyaning asosiy unsurlaridan biridir. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda ko‘plab qiyinchiliklar yuzaga keladi. Jumladan, jinoyatning qilmish va natija tomonlarini aniq ajratish, sabab-natija bog‘lanishini o‘rganish, shuningdek, aybdorlik shaklini to‘g‘ri

¹⁰⁰ O‘zbekiston Respublikasining “Qurol to‘g‘risida” gi Qonuni

aniqlash qiyinchiliklari mavjud. Dalillar yetishmovchiligi yoki noto‘g‘ri talqin qilinishi ham kvalifikatsiya xatolariga olib keladi. Natijada, jinoyat yengilroq yoki og‘irroq turga kiritilishi mumkin.

Noto‘g‘ri kvalifikatsiya jinoyatchining jazodan qochishiga yoki ortiqcha jazoga tortilishiga sabab bo‘ladi. Bu esa sud adolati prinsiplarini buzadi, jabrlanuvchilar huquqlarini ta‘minlashda muammolar tug‘diradi va jamiyatda jinoyatchilikka qarshi kurashning samaradorligini pasaytiradi. Kvalifikatsiya jarayonini takomillashtirish uchun huquqshunoslarning malakasini oshirish, sud amaliyotini yagona mezonlar asosida yuritish va ekspertizalarning sifatini oshirish zarur. Shuningdek, jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish jarayonida huquqni muhofaza qilish organlari bilan samarali hamkorlik qilish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, mulkka qarshi jinoyatlar har qanday huquqiy davlatda jiddiy e‘tibor talab qiladigan ijtimoiy xavfli xatti-harakatlar sirasiga kiradi. Chunki mulk - fuqarolarning shaxsiy farovonligi, davlat va jamiyat barqarorligining huquqiy kafolatidir. Ushbu jinoyatlarning huquqiy bahosi, ya‘ni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilinishi nafaqat jinoyat huquqi amaliyotining aniqligi, balki adolatli jazolash tamoyilining ta‘minlanishi bilan chambarchas bog‘liq.

Mulkka qarshi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda har bir jinoyat tarkibining alohida belgilarini chuqur tahlil qilish zarur: jinoyatning obyekti (ya‘ni mulk shakli), subyekti (masalan, voyaga yetgan shaxs, takror jinoyat sodir etgan shaxs va h.k.), sub‘ektiv tomoni (ayb shakli va niyat) va obyektiv tomoni (jinoyat harakati, usuli, holati). Shu asosda o‘g‘rilik, talonchilik, bosqinchilik, tovlamachilik kabi har xil jinoyatlar bir-biridan aniq ajratib olinadi.

Jinoyatni noto‘g‘ri kvalifikatsiya qilish — jinoyatchining jazodan qochishiga yoki ortiqcha jazo olishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, jinoyatlarni to‘g‘ri kvalifikatsiyalash — nafaqat tergovchilar, balki sud organlari va huquqshunos olimlar zimmasidagi muhim vazifadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 65-modda
2. Rustamboyev M.X. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism/M. Rustamboyev. – Toshkent: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2024. - 410-bet
3. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 164-167-moddalar
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining “O‘zgalar mulkini o‘g‘rilik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-taroj qilish jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida” gi qarori
5. O‘zbekiston Respublikasining “Qurol to‘g‘risida” gi Qonuni